| Деятельность международных финансово-кредитных организаций и перспективы развития сотрудничества с Республикой Узбекистан .....                             | 299 |
| Холикова Зарнигор Камолиддин кизи                                                                                                                           |     |
| Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarida davlat xarajatlarini moliyalashtirish tartibi va amal qilish holati.....                                    | 302 |
| Abdurasulov Sardor Toʻlqin oʻgʻli                                                                                                                           |     |
| Tijorat banklari tomonidan komplayens-nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari .....                                                                    | 307 |
| Rustamov Sunnatillo Rustamovich                                                                                                                             |     |
| Bank tizimi modernizatsiyasida innovatsion boshqaruv modellarining ahamiyati .....                                                                          | 310 |
| Hamroyev Xurshid Jalilovich                                                                                                                                 |     |
| Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya.....                                                                                                    | 314 |
| Turapov Bahromjon Alisher oʻgʻli                                                                                                                            |     |
| Oʻzbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga yoʻnaltirilgan davlatning siyosati, meʼyoriy-huquqiy bazasi va iqtisodiy islohotlari ..... | 317 |
| Xasanov Jaxongir Jamshidovich                                                                                                                               |     |
| “Qurilish materiallari sanoatida innovatsion faollikni ragʻbatlantirish mexanizmi” .....                                                                    | 321 |
| Gʻulomov Ilhom Akramovich                                                                                                                                   |     |
| Legal foundations and challenges in the implementation of guarantees for foreign investors’ rights .....                                                    | 324 |
| Alisherova Eʼzoza, N. Kh. Rakhmonqulova                                                                                                                     |     |
| Innovatsion faollikni oshirish orqali qurilish materiallari sanoatida raqobatbardoshlikni taʼminlash .....                                                  | 326 |
| Gʻulomov Ilhom Akramovich                                                                                                                                   |     |
| Soliq siyosatining inklyuziv rivojlanishni taʼminlashining huquqiy-meʼyoriy asoslari .....                                                                  | 329 |
| Hakimov Feruz Xurshid oʻgʻli                                                                                                                                |     |



# SOLIQ SIYOSATINING INKLYUZIV RIVOJLANISHNI TA'MINLASHINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Hakimov Feruz Xurshid o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

ORCID ID: 0009-0000-4214-7906

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soliq siyosatining inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdagi huquqiy-me'yoriy asoslari tahlil qilinadi. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda soliq siyosatining o'rni, uning ijtimoiy adolat, iqtisodiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashdagi roli yoritilgan. Xalqaro tajribalar asosida, xususan, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlarining soliq qonunchiliklari asosida inklyuziv yondashuvlar soliq siyosatiga qanday tatbiq etilayotgani ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston soliq tizimida mavjud huquqiy asoslar va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, inklyuziv rivojlanish, huquqiy asoslar, iqtisodiy tenglik, soliq islohotlari, fiskal siyosat, ijtimoiy adolat, xalqaro tajriba, barqarorlik, qonunchilik.

**Abstract:** This article analyzes the legal and regulatory foundations of tax policy in ensuring inclusive economic development. The study highlights the role of taxation in promoting social justice, economic equality, and sustainability. Based on international experience, particularly from the European Union and Central Asian countries, the article examines how inclusive approaches are being incorporated into tax systems. It also offers recommendations for improving the legal framework of Uzbekistan's tax policy in line with inclusive growth goals.

**Key words:** tax policy, inclusive development, legal framework, economic equality, tax reform, fiscal policy, social justice, international experience, sustainability, legislation.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются правовые и нормативные основы налоговой политики в обеспечении инклюзивного экономического роста. Освещается роль налоговой политики в обеспечении социальной справедливости, экономического равенства и устойчивости. На основе международного опыта, в частности, стран Европейского Союза и Центральной Азии, анализируется применение инклюзивного подхода в налоговой системе. Также даны предложения по совершенствованию нормативно-правовой базы налоговой системы Узбекистана.

**Ключевые слова:** налоговая политика, инклюзивное развитие, правовые основы, экономическое равенство, налоговая реформа, фискальная политика, социальная справедливость, международный опыт, устойчивость, законодательство.

Soliq siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv (barqaror va adolatli) rivojlanishni ta'minlashda soliq tizimining samarali va ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishi nihoyatda muhimdir. Inklyuziv rivojlanish – bu aholining barcha qatlamlarini iqtisodiy jarayonlarga jalb etish, kambag'allikni qisqartirish, teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy adolatni ta'minlashni anglatadi. Bunday maqsadlarga erishishda soliq siyosatining huquqiy-me'yoriy bazasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Soliq sohasidagi xalqaro shartnomalar turlicha nomlanishi mumkin. Jumladan, shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi. Ular xalqaro huquq normalariga muvofiq boshqa shakllarda ham tuzilishi mumkin. Xalqaro huquq normalariga muvofiq soliqqa tortishning huquqiy me'yoriy asoslari sifatida davlatlar o'rtasida ishtirokchilar soniga qarab tuziladigan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'ladi. Bundan tashqari ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish, ikkitomonlama soliq bitimlar, BMT, OECD, EU, XVf kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konvensiyalar ham nuhim ahamiyat kasb etadi.

Ikki karra soliqqa solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi shartnoma – mamlakatlarning jismoniy va yuridik shaxs-rezidentlari daromadi va mulkiga soliq solish masalalarini tartibga soluvchi ikki tomonlama xalqaro hujjatdir. Uning asosiy maqsadi – soliq to'lovchi faqat bir davlatda soliq to'lashi yoki pasaytirilgan stavkada soliq



to'lash huquqiga ega bo'lishini ta'minlashdir. Shuningdek, shartnoma sherik davlatda soliqni hisoblash tartibini ham belgilaydi. Shu bilan birga mamlakatda inklyuziv rivojlanishni ta'minlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish, investitsiyalarni jalb qilish, savdo hamkorligini rivojlantirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatlarga kim bilan va qanday shartlarda shartnoma tuzishni mustaqil belgilash huquqini beradi. Quyida xalqaro tashkilotlarning inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan soliq qonunchiligini ishlab chiqish yuzasidan amalga oshirib kelayotgan tashabbuslari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro tashkilotlarning soliq siyosatiga oid hujjatlari<sup>1</sup>

| Tashkilot                                | Soliq qonunchiligiga oid tashabbuslar            | Amaliyotga joriy qilingan yil                                           |
|------------------------------------------|--------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| 1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) | BMT Model Soliq Konvensiyasi                     | Dastlab 1988, so'nggi yangilanishlar 2011–2017                          |
|                                          | UNO Tax Convention (muzokaralar)                 | 2025–2027 (hozirgi paytda ishlab chiqilmoqda)                           |
| 2. (OECD)                                | BEPS tashabbusi                                  | 2013–2015, rasmiy qabul 2015-yil                                        |
|                                          | OECD Model Soliq Konvensiyasi                    | Dastlab 1928, hozirgi versiya 2017-yil                                  |
|                                          | MLI (Multilateral Instrument)                    | Qabul qilingan 2016, amaliyotga 2017-yilda kirgan                       |
|                                          | Transfer narxlash bo'yicha ko'rsatmalar          | Eng yirik yangilanishlar 2017 va 2022                                   |
| 3. Yevropa Ittifoqi (EU)                 | CRS (Common Reporting Standard)                  | Ishlab chiqilgan 2014, joriy etilgan 2017-yil                           |
|                                          | ATAD (Anti-Tax Avoidance Directive)              | 2016-yilda ishlab chiqilgan                                             |
|                                          | DAC (Directive on Administrative Cooperation)    | Birinchi 2011, eng so'nggi DAC7 — 2021-yil                              |
|                                          | Digital Services Tax (raqamli xizmatlar solig'i) | 2019-yildan boshlab joriy qilinmoqda, EU darajasida muhokama qilinmoqda |

Bugungi kunda “UNO Tax Convention” — bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) doirasida xalqaro soliq hamkorligi bo'yicha yangi global konvensiya loyihasini anglatadi. Bu konvensiya xalqaro soliq tizimini adolatliroq va inklyuzivroq qilishni, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini ko'proq hisobga olishni maqsad qilgan<sup>2</sup>. Ushbu jarayon 2027-yilgacha yakunlanishi kutilmoqda. BMT Model Soliq Konvensiyasi xalqaro soliq normalarini o'z ichiga olgan holda soliqlarni inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdagi roli va ahamiyatini oshirish, shaffof soliq siyosati tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ishlab chiqqan Daromad va kapitalga soliqqa oid Modelli konvensiya (Model Tax Convention on Income and on Capital)<sup>3</sup> asosida ikki tomonlama shartnomalar mazmunini bir xillashtirish jarayoni davom etmoqda. Bu model mamlakatlar o'rtasida xalqaro soliq qonunchiligi asosida uzoq muddatli shartnomalar tuzishda qo'llanadi.

BEPS (Base Erosion and Profit Shifting)<sup>4</sup> loyihasi doirasida transmilliy kompaniyalar tomonidan foydani sun'iy ravishda boshqa yurisdiksiyalarga ko'chirish orqali soliq to'lashdan qochishga qarshi 15 ta chora-tadbir (Action Plan) ishlab chiqilgan. BEPS bu transmilliy korporatsiyalar foydani iqtisodiy faoliyati kam yoki umuman bo'lmagan, soliq stavkalari juda past yoki yo'q bo'lgan hududlarga ko'chirish yoki foiz to'lovlari, royalti kabi chegirib tashlanadigan xarajatlar orqali soliq bazasini kamaytirish amaliyotidir. Bunday amaliyotlar har yili davlatlarga 100–240 milliard AQSh dollari miqdorida soliq daromadlarini yo'qotishga olib keladi. Bu esa global korporativ daromad solig'i tushumining 4–10% ga teng. Ba'zi BEPS sxemalari noqonuniy bo'lishi mumkin, biroq ularning aksariyati qonuniy hisoblanadi. BEPS amaliyotlari soliq tizimining adolatligi va yaxlitligini izdan

1 Jadval muallif tomonidan tayyorlandi. UN Tax Committee - (<https://www.un.org/esa/ffd/tax/>), UNO Tax Convention News & Updates (<https://www.un.org/press/en/2024/gaef3575.doc.htm>), OECD BEPS Project (<https://www.oecd.org/tax/beps/>), OECD Model Tax Convention (<https://www.oecd.org/tax/treaties/model-tax-convention-on-income-and-on-capital-condensed-version-201745419.htm>), OECD MLI Information (<https://www.oecd.org/tax/treaties/multilateral-instrument.htm>), OECD Transfer Pricing Guidelines (<https://www.oecd.org/tax/transfer-pricing/>), OECD CRS Information (<https://www.oecd.org/tax/automatic-exchange/common-reporting-standard/>), EUR-Lex ATAD Directive (<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32016L1164>), European Commission DAC ([https://ec.europa.eu/taxation\\_customs/business/company-tax/administrative-cooperation\\_en](https://ec.europa.eu/taxation_customs/business/company-tax/administrative-cooperation_en)), European Commission Digital Tax ([https://ec.europa.eu/taxation\\_customs/business/company-tax/digital-economy-taxation\\_en](https://ec.europa.eu/taxation_customs/business/company-tax/digital-economy-taxation_en))

2 United Nations Model double taxation convention between developed and developing countries, New York, 2021

3 <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/oecd-model-tax-convention-on-income-and-on-capital.html>

4 <https://www.oecd.org/en/topics/base-erosion-and-profit-shifting-beps.html>



chiqaradi, chunki xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi korxonalar bu orqali faqat ichki bozorda ishlaydigan korxonalarga nisbatan raqobat ustunligini qo'lg'a kiritadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan Anti-Tax Avoidance Directives (ATAD)<sup>5</sup> bu Yevropa Ittifoqi Kengashining 2016/1164-sonli direktivasi bo'lib, korporativ darajadagi soliqdan qochish sxemalariga qarshi majburiy choralarni belgilaydi. Ushbu direktiva barcha a'zo davlatlar uchun huquqiy jihatdan majburiy hisoblanadi va agressiv soliq rejalashtirishning keng tarqalgan shakllariga qarshi kurashishni maqsad qilgan (2-jadval).

2-jadval. Soliqdan qochishga qarshi yo'naltirilgan direktivalar

| No | Maxsus qoidalar                                               | Maqsadlar                                                 |
|----|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------|
| 1  | <b>Foizlarni cheklash qoidasi</b> (Interest Limitation Rule)  | Soliqdan qochish uchun ortiqcha qarz olishni cheklash.    |
| 2  | <b>Chiqib ketish solig'i</b> (Exit Taxation Rule)             | Aktivlarni ko'chirib, soliqdan qochishni oldini olish.    |
| 3  | <b>Boshqariladigan chet el kompaniyasi qoidasi</b> (CFC Rule) | Foydani past soliq hududlariga ko'chirishni oldini olish. |
| 4  | <b>Umumiy suiiste'molga qarshi qoida</b> (GAAR)               | Suiiste'molliklarni aniqlab, oldini olish.                |
| 5  | <b>Gibrid nomuvofiqlik qoidasi</b> (Hybrid Mismatch Rule)     | Gibrid sxemalar yordamida soliqdan qochishni to'xtatish.  |

Bugungi kunda tashqi soliq siyosati ishlab chiqilishida olib boriladigan hisob-kitoblar, ushbu siyosatning muvaffaqiyat darajasini belgilab bermoqda. Amalga oshiriladigan xalqaro savdo va kapital harakati hajmlari bir necha milliard dollarni tashkil etishi inobatga olinsa, u holda, to'g'ri olib boriladigan tashqi soliq siyosatining qiymati, har bir mamlakat uchun bir-necha million va xattoki, milliard dollar darajasiga yetishi mumkin. To'g'ri ishlab chiqilmagan tashqi soliq siyosatining salbiy oqibatlari sifatida (eksport bo'yicha mavjud raqobat va xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish shartlarining yomonlashuvidan ko'rildigan zararlardan tashqari), faqatgina, yig'ib olinmagan soliq tushumlari yoki tashqi faoliyatdan valyuta tushumlarining pasayishi bo'yicha yirik summalarda aks etishi mumkin bo'lgan zararlarni keltirib chiqarishi ahamiyatda holi emas.

Aksariyat mamlakatlar qonunlarida xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiy tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat ko'rsatmalarida, sud qarorlarida, ma'lum milliy qonunchilik hujjatlarida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Bularni tartibga soliq nuqtai nazarini jahon soliq kodeksi ishlab chiqilgan.

Jahon soliq kodeksi Birlashgan millatlar tashkiloti u yoki bu xalqaro dasturlar asosida bozor islohotlarini amalga oshirayotgan davlatlarga ma'lum bir loyihalarni ishlab chiqish va joriy etishda yordam berish hamda hamkorlik qilishni amalga oshiradi. Bunday hamkorlik yo'nalishlaridan biri zamonaviy xalqaro iqtisodiy talablarga javob beradigan milliy soliq tizimining yuzaga kelishiga, shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishdir. Aynan shunday chora- tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, ya'ni xalqaro soliq dasturi doirasida Jahon soliq kodeksini tayyorlash fikri yuzaga keldi. Ushbu Kodeksning asosiy maqsadi islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga ilmiy asosda soliq munosabatlarini boshqarish, yagona terminologiya va yagona mazmundagi izohni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishdir. Jahon soliq kodeksi asoslari shaklidagi ushbu hujjat 1993-yilda tayyorlanib, nashrdan chiqarildi.

Uning mualliflari Garvard universiteti (AQSH) mutaxassislari Uord M. Xassi va Donald S. Lyubik. Ushbu Kodeks asoslari 300 betdan iborat bo'lib, 591 ta modda va izohni o'z ichiga olgan Soliq kodeksi matnidani iboratdir<sup>6</sup>. Kodeksning kirish qismida mualliflar ko'pgina davlatlar tajribasidan o'tgan soliq tizimining zamonaviy ma'nosini ochib berishga harakat qilganliklarini yozishgan. Jahon soliq kodeksi namuna sifatida bo'lishiga qaramasdan, unda soliq to'lovlarining aniq stavkalari, uning minimumlari va imtiyozlar berilgandir. Kodeks matni va unda berilgan stavkalar kodeksdan foydalanishni xohlovchi davlatlar uchun majburiy emas, balki ixtiyoriy tusga egadir. Milliy soliq qonunchiligi tayyorlanayotganda ushbu davlat mutaxassislari tomonidan mamlakatdagi aniq iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar inobatga olinishi kerak. Kodeksda berilgan nizom alohida ahamiyatga egadir. Bu nizomga ko'ra, soliq tizimi orqali iqtisodiy subsidiyalar berish to'g'ri subsidiya to'lovlariga nisbatan samara darajasi kamroq. Imtiyoz turlari va yengilliklarning ko'pligi, soliq imtiyozlarini nazorat qilishning qiyinligi sababli, soliq tizimini murakkablashtiradi va samaradorligini tushiradi, uning zarur bo'lgan egiluvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan kelib chiqadiki, kodeksda soliqlardan vaqtinchalik yoki doimiy ozod etish kabi imtiyozlar ko'zda tutilmaydi.

5 [https://taxation-customs.ec.europa.eu/taxation/business-taxation/anti-tax-avoidance-directive\\_en](https://taxation-customs.ec.europa.eu/taxation/business-taxation/anti-tax-avoidance-directive_en)

6 Soliqlar va soliqqa tortish (II qism): Darslik / Jo\_rayev A.S., Safarov G.\_A., Meyliyev O.R. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2019. – 264 b.



Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda, Kodeks mualliflari fikricha, ushbu davlatlar daromadlari asosiy qismi bo'xona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar hamda korxona va tashkilotlar foydasiga soliq hisobiga shakllanadi. Bunday soliq tizimi ular fikricha, soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan kam bo'ladi. Tavsiya etilayotgan Kodeksdagi soliqlar tizimiga faqatgina yuqori daromadlarga ega bo'lgan aholiga nisbatan qo'llaniladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ham kiritilgandir. Bu, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda asosan rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik davlatlarda individual daromad soligini rivojlangan davlatlardagi kabi keng miqyosda qo'llash uchun yetarli darajadagi ma'muriy va huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Jahon soliq kodeksini ishlab chiqqanlar, soliq qonunlarini tayyorlash va qabul qilish soliq islohotiga dastlabki qadamdir deb hisoblaydilar.

Kodeks quyidagi besh asosiy qismdan iborat:

Daromad solig'i;

Qo'shilgan qiymat solig'i;

Aktsiz soliqlari;

Ko'chmas mulkka soliq;

Soliq ma'muriyati.

Xalqaro soliqqa tortish – davlat chegarasidan tashqarida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishni anglatadi. Uning asosiy tamoyillari (3-jadval):

3-jadval. Xalqaro soliq tamoyillari<sup>7</sup>

| № | Tamoyil nomi                                    | Izoh                                                                                  |
|---|-------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish   | Bir xil daromadga ikki davlatda soliq solinmasligini ta'minlaydi.                     |
| 2 | Adolat va tenglikni ta'minlash                  | Mahalliy va xorijiy soliq to'lovchilar uchun teng sharoit yaratadi.                   |
| 3 | Iqtisodiy samaradorlikni rag'batlantirish       | Soliq yukining iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sirini kamaytiradi.                     |
| 4 | Soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurash | Soliq bazasini asrash, noqonuniy faoliyatni aniqlash va oldini olishni ko'zda tutadi. |

Bundan tashqari, davlatlar iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish maqsadida xalqaro shartnomalarni imzolaydilar. Ushbu shartnomalar asosida davlatlar bir-birining korxona va fuqarolarining daromadlarini soliqdan ozod qilishi yoki qisman soliqqa tortishi mumkin. Ikkinchi davlat esa bu hisobni milliy qonunchilikda inobatga oladi. Xalqaro soliq qoidalari kompaniyalar tomonidan xorijdagi faoliyatlari va savdolari orqali topilgan daromadga nisbatan qo'llaniladi. Davlatlar o'rtasidagi soliq shartnomalari qaysi davlat soliq daromadini yig'ishini belgilaydi, shuningdek, kompaniyalar global soliq yukini kamaytirish uchun foydalanadigan bo'shliqlarni cheklash maqsadida soliqdan qochishga qarshi qoidalar joriy etiladi. Xalqaro soliq bitimlari doirasida davlatlar quyidagi hamkorlikni amalga oshiradilar (4-jadval):

4-jadval. Xalqaro soliq bitimlarining me'yoriy-huquqiy ahamiyati<sup>8</sup>

| № | Hamkorlik yo'nalishlari                                                                     | Me'yoriy-huquqiy ahamiyati                                                                                |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va huquqbuzarliklarni bartaraf etishda yordam | Davlatlar bir-biriga soliqqa oid qonunbuzarliklar aniqlanganda huquqiy yordam ko'rsatadi.                 |
| 2 | Soliq to'lovchilar haqida ma'lumot almashish                                                | Soliq to'lovchilarning faoliyati bo'yicha dolzarb ma'lumotlarni almashish orqali shaffoflik ta'minlanadi. |
| 3 | Soliq tizimidagi o'zgarishlar bo'yicha axborot berish                                       | Soliq qonunchiligidagi yangiliklar va islohotlar haqida sherik davlatlarni xabardor qilish.               |
| 4 | Soliq idoralari faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalarni yaratish va qo'llash      | Raqamli texnologiyalar orqali soliq boshqaruvini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish.           |
| 5 | Kadrlar tayyorlash va tajriba almashish                                                     | Soliq sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va xalqaro tajribani o'zaro o'rganish.                   |

7 Jadval muallif tomonidan tayyorlandi (R.T. Berdiyarov, Z.N. Q urbonov; m as'ul muharrir: Sh.N. R o'zinazarov; taqrizchilar: Sh. B ilolxo'jayeva [va boshq.]. - T.: Y U RIST-M EDIA M ARKAZI, 2010. 320 b. I. Q urbonov Z.N)

8 TaxEdu ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (<https://taxfoundation.org/taxedu/glossary/international-tax-rules/>)



Xalqaro shartnomalar qoidalariga, shuningdek, xalqaro shartnomalar bo'yicha soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga qaratilgan maxsus qoidalarga muvofiq, pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llanadi. Yuqorida keltirilgan soliq chegirmasini qo'llash usuli aynan ushbu normaning mazmunidan kelib chiqadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ma'lumot almashinuvi bo'yicha ko'p tomonlama bitim tuzganlar. Bu shuni anglatadiki, ular boshqa har qanday yurisdiksiyadagi ahdlashuvchi tomonlarga daromadlari kelib chiqqan davlat rezidenti bo'lmagan shaxslar ro'yxatini taqdim etadi. Mazkur tartibning maqsadi — ushbu shaxslarning o'z mamlakatida chet elda olingan daromadlarni soliq deklaratsiyalarida ko'rsatishi va shu orqali soliqdan bo'yin tovlashning oldini olishdir.

Huquqiy asos sifatida qonun ustuvorligi va davlatning xalqaro majburiyatlari bajarilishi talab qilinadi. "Daromadlar qoidasi"ga ko'ra, bir davlat boshqa davlatning soliq talablarini bajarishga majbur emas. Shu bilan birga, xalqaro huquqiy tamoyillar – aralashmaslik va o'z taqdirini belgilash – soliq qonunchiligiga taalluqli bo'lsa-da, ko'p va ikki tomonlama shartnomalar orqali o'zgartirilmoqda. O'zbekiston Yaponiya bilan hamkorlik doirasida kadrlar tayyorlash va tajriba almashishni yo'lga qo'ygan. Bu xalqaro soliq masalalarini tartibga solish, hamkorlikni kengaytirish va mamlakat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman qaralganda alqaro soliqqa tortish tizimi – bu global iqtisodiyotda adolat, barqarorlik va shaffoflikni ta'minlash vositasi. U davlatlar o'rtasidagi soliq siyosatini muvofiqlashtirish, soliqlardan bo'yin tovlashni kamaytirish va inklyuziv rivojlanish uchun muhim zamin yaratadi. Har bir davlat, jumladan O'zbekiston, bu tizimga faol integratsiyalashuv orqali o'zining fiskal barqarorligini mustahkamlashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UN Tax Committee - (<https://www.un.org/esa/ffd/tax/>), UNO Tax Convention News & Updates (<https://www.un.org/press/en/2024/gaef3575.doc.htm>), OECD BEPS Project (<https://www.oecd.org/tax/beps/>), OECD Model Tax Convention (<https://www.oecd.org/tax/treaties/model-tax-convention-on-income-and-on-capital-condensed-version-20745419.htm>), OECD MLI Information (<https://www.oecd.org/tax/treaties/multilateral-instrument.htm>), OECD Transfer Pricing Guidelines (<https://www.oecd.org/tax/transfer-pricing/>), OECD CRS Information (<https://www.oecd.org/tax/automatic-exchange/common-reporting-standard/>), EUR-Lex ATAD Directive (<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32016L1164>), European Commission DAC ([https://ec.europa.eu/taxation\\_customs/business/company-tax/administrative-cooperation\\_en](https://ec.europa.eu/taxation_customs/business/company-tax/administrative-cooperation_en)), European Commission Digital Tax ([https://ec.europa.eu/taxation\\_customs/business/company-tax/digital-economy-taxation\\_en](https://ec.europa.eu/taxation_customs/business/company-tax/digital-economy-taxation_en))
2. United Nations Model double taxation convention between developed and developing countries, New York, 2021
3. <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/oecd-model-tax-convention-on-income-and-on-capital.html>
4. <https://www.oecd.org/en/topics/base-erosion-and-profit-shifting-beps.html>
5. [https://taxation-customs.ec.europa.eu/taxation/business-taxation/anti-tax-avoidance-directive\\_en](https://taxation-customs.ec.europa.eu/taxation/business-taxation/anti-tax-avoidance-directive_en)
6. Soliqlar va soliqqa tortish (II qism): Darslik / Jo'rayev A.S., Safarov G.A., Meyliyev O.R. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2019. – 264 b.
7. R.T. Berdiyarov, Z.N. Q urbonov; m as'ul muharrir: Sh.N. R o'zinazarov; taqrizchilar: Sh. B ilolxo'jayeva [va boshq.]. - T.: Y U RIST-M EDIA M ARKAZI, 2010. 320 b. I. Q urbonov Z.N



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025-yil, may.**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>